

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2024-5/4

**Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o'rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo'latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i>	<i>Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.</i>
<i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i>	<i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i>
<i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i>	<i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i>
<i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i>	<i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i>
<i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i>	<i>Raximova Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i>
<i>Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.</i>	<i>Raximova Go'zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i>
<i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i>	<i>Ro'zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i>
<i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i>	<i>Ro'zmetov Dilshod Ro'zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i>
<i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i>	<i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i>
<i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i>	<i>Salayev San'atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i>
<i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i>	<i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i>
<i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i>	<i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i>
<i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i>	<i>Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.</i>
<i>Ibragimov Baxtiyor To'laganovich, k.f.d., akad.</i>	<i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i>
<i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i>	<i>Sobitov O'lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i>
<i>Ismailov Is'haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i>	<i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i>
<i>Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.</i>	<i>Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.</i>
<i>Jumanov Murat Arepbayevich, d.b.n., prof.</i>	<i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i>
<i>Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.</i>	<i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i>
<i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i>	<i>Cho'ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i>
<i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i>	<i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i>
<i>Karimov Ulug'bek Temirbayevich, DSc</i>	<i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i>
<i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i>	<i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i>
<i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i>	<i>O'razboyev G'ayrat O'razaliyevich, f-m.f.d.</i>
<i>Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.</i>	<i>O'rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i>
<i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i>	<i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i>
<i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i>	<i>Hasanov Shodlik Bekpo'latovich, k.f.n., k.i.x.</i>
<i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i>	<i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i>
<i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i>	<i>Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.</i>
<i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i>	

Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/4 (114), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2024 y. – 571 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo'limi – Xorazm Ma'mun akademiyasi

МУНДАРИЖА
FILOLOGIYA FANLARI

Abdullayeva G. Bolalar she'riyatida lirik qahramon ifodasi	7
Abdullayeva G.N. Vafo va xiyonat ziddiyati	9
Abdullayeva P.U. Ellipsis va substitutsiya hodisalari	12
Abdurahmonova H.Yu., Nishonov P.P. XIX asrda fransuz adabiyoti: qishloq turmush tarzi manzaralari va adabiy tendensiyalar	15
Abdurakhmonova A. Clarity counts: avoiding ambiguity through proper punctuation	17
Abdusagatova F. Radio eshittirishdagi yangi yo'nalishlar - davr talabi	20
Ahmadaliyeva S.M., Shavkatova N.Z. Pragmatonimlarda stilistik vositalarning qo'llanilishi	23
Ahmadzade O. Functional styles of the Azerbaijani literary language of the XIX and early XX centuries in the researches of academician Tofiq Hajiyev	25
Akhmedova S.H., Bafoyeva D.D. Linguistic and cultural characteristics of english and uzbek proverbs	28
Alimova K.M. Postmodernizm davri kampus romanlari poetikasi	30
Allaberganova R., Maxmudov R. Qadimgi turkiy qavmlardagi ayrim shaxs nomlarining antropotsentrik tadqiqi	33
Allayev Z.M. Development of oneirosphere in traditional China	37
Alqarov N.A. Investigating Utopian and Dystopian Motifs within Germanic and Romantic Literary Traditions	39
Amonov H.H., Raximova G. Pahlavon Mahmud she'riyatida ilm-ma'rifat afzalliklari va nodonlikning illatlari talqini	43
Amonova Z.Q., To'rayeva M.T. Alisher Navoiy lirikasida ma'shuqa uzvlarining badiiy talqinlari	46
Amonov U.S., Saparova Sh.R. Sadridin Ayniy bolalar adabiyotining asoschisi	50
Anvarova S.M. Translating names of uzbek national clothes into english language	53
Atadjanova S.A. "Zubdatu-t-tavorix" asari she'riy shakllaridagi ma'naviy san'atlar	55
Ataniyazova D. Sh. Pragmatical characteristics of english and uzbek proverbs with food components	58
Ataxanova V.R. «Kitobi dadam qo'rquv» va Xorazm dostonlarining motivlar tizimi bo'yicha tahlili	61
Avezova A.M. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonlari qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida	63
Axmadaliyeva S.M. Onomastik ko'lam va unda pragmatonimlarning o'rni	66
Azamatova G.S. Category of number in german language	69
Babajanova L.J. Bilingual tezaurus yaratishda muammo va qiyinchiliklar. O'zbek va ingliz tillardagi fe'llarning valentlik munosabati masalalari	72
Babayeva P.T. Lexical-semantic features of onomastic units and points of development in fiction	75
Bakhronova B. The ways of improving note-taking skills in sequential translation	77
Baxranova D.U., Qarshiyeva L.Z. Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarda polisimiyaning hosil bo'lishi	80
Baymuratova X.A. "Firdavs ul-iqbol" asarida qo'llangan ayrim kosmonimlar xususida	84
Berdibekova H.M. O'zbek tilidagi falsafiy terminlarni ta'limiy korpusda teglash masalasi	87
Boboxonova S.X. Nemis va o'zbek tillarida hozirgi -kelasi zamoni o'rgatishning metodikasi	90
Botirbayeva Z., Bahodirova F. Giperbola (mubolag'a san'ati)ning reklamadagi o'rni	93
Choriyev U. Jadid ma'rifatparvarlari yaratgan darsliklarning ilmiy ahamiyati	96
Davlatnazarov D.R. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining versiyalaridagi antroponimlarning farqlanishi	99
Djalilova D.Z. "Javzo" romanida malikalar obrazi tahlili	101
Do'smatov S. Hamadoniy va Haririy maqomalarining o'ziga xosliklari	104
Egamnazarova D.Sh. Analyzing syntactic deviations through patterns, purposes, and perceptions	107
Ergasheva X. Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning leksik-semantik xususiyatlari	109
Eshqobilova O. Ingliz va o'zbek tili so'z birikmalari tuzilishining konseptual-kognitiv tasviri va matn shakllantirish imkoniyatlari	112
Fayzullayeva R. Ilk yozma manbalardagi vatan talqinining Sirojiddin Sayyid ijodiga ta'siri	114
Gafurova S.U. "Tavorixi guzida – Nusratnoma" asarida qo'llangan etnonimlar	117
Hakimjonova R. Tushbitiklarda arxetip obrazlar	120
Ibragimova I.A. Til va tafakkurning birlashtiruvchilik xususiyati	124

Israil M. Qayta qurish davridagi o'zbek gazeta matnlarining lisoniy-uslubiy jihatlari: sotsiologiyistik yondashuv	127
Jabborova Z.M. Jahon va o'zbek tilshunosligida publisistik uslub va uning turlari	130
Jalilova M.Z. To'y-marosim nomlarini bildiruvchi ayrim etnografizmlar xususida	134
Jo'rayeva N.Sh. Evfemizm, yohud yumshoq muomala fransuz ayollari talqinida	137
Jumanazarova N. Xiva toponimining kelib chiqishi	139
Karshieva Sh.Sh. Criteria for formation of innovative speech units in english and uzbek languages	142
Kiryigitova N. Amir Temur obrazining badiiy ijodda yoritilishi	144
Komilova G.T. Linguoculturological analysis of gender characteristics in uzbek artistic speech	146
Kurbanova I.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida morfologik usulda yasalgan temir yo'l terminlari	149
Kuryozova D., Yodgorova N. Shermuhammad Munis tarjimasidagi "Ravzatu-s-safo" asarida qo'llanilgan ayrim eroniy leksik birliklar tahlili	152
Liu Likun Classification and characteristics of modern chinese color words	155
Madaminova D.B. Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romanida maqollardan foydalanish mahorati	159
Madieva M.Yu. Cultural features of brand names	162
Masharipov M.M. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida semantik okkazionalizmlarning nutqiy voqelanishi	165
Mavlonov A. L. Vilderning "Preriyadagi kichkina uy" asarida tarixiy janr xususiyatlarining davr va insonlar, ko'chmanchi oila munosabatlari tasviri orqali ifodasi	169
Maxammatova F. Abdulla Qahhor uslubidagi ayrim o'ziga xosliklar haqida mulohazalar	171
Maxmitova D.S. Alisher Navoiy asarlarida insoniy fazilatlar haqida	174
Maxmudov R., Matkarimova G. Ingliz va o'zbek tillaridagi ayrim fitonimik frazeologizmlarning qiyosiy tahlili	177
Maxmudov R., Yusupova S. Dunyo xalqlaridagi allalarning lingvokulturologik xususiyatlari	181
Meylieva G.M. Teaching terminology in language for specific purposes	184
Muhammadiyeva N.X. O'zbek tilshunosligida terminologik tizim tahlilining asosiy tamoyil va yo'nalishlari	186
Muhammadiyeva Sh.A. Ayol va erkak obrazlarining shakllanishida ingliz va o'zbek til madaniyatidagi ekstralingvistik faktorlar	189
Murodova A.X. O'zbek va turk tillarida "boylik" konseptini ifodalagan frazeologik iboralar	191
Mustafayeva M.B. Ingliz tilidagi modal so'zlarning semantik xususiyatlari	196
Muxiddinova S.A. Til va madaniyatning hozirgi zamon tilshunosligidagi talqini	198
Nazarova D.B. O'zbek tili ish yuritish uslubining tasniflanishi	202
Nazarova Z.K. The study of english somatic phraseology with uzbek language	204
Nuraliyev G'.Q. Taqlid so'zga yuklangan ma'no	207
Odinayeva N.L., Norqulova M. The depiction of female main characters in the novel "gone with the wind" by margaret mitchell	209
Otajonova D.B. Shaxs omiliga yo'naltirilgan antroposentrik tahlil	212
Qalandarov Sh. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi ertak namunalarning lingvopoetik tahlili	215
Qalandarov Sh. Ertak janr xususiyatlari	218
Qarshiyeva Sh.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida innovatsion iqtisodiy nutqiy birliklarning struktur tahlili	221
Qodirjonova I.B. O'zbek adabiyotida yetim obrazi va yetimlik motivining vujudga kelishi va ularning tadriji	223
Qodirova M.S. Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarida qo'llangan parantez birliklar tahlili	228
Qosimova X.O. Turli tizimdagi tillarda kirish bo'laklar va ularni ifodalovchi sintaktik vositalar	231
Rabieva M.G. Speech norm and dysphemism	234
Radjabkulov O.R. Evfemizmlar va ularning shakllanish turlari	236
Ruzimatova G.Sh. O'zbek bolalar she'riyatida ruhiyat tasvirining badiiy talqini	240
Ruzmatova N.N., Jurayeva I.A. Adequacy and equivalency issues in translation	243
Safarova Sh.A. "Hayrat ul-abror" dostonida "me'roj" tasviri	246
Safarova Z.T., Narzulloyeva M.N. Charlz Dikkensning "Oliver Twist" romanida bolalarga nisbatan adolatsizlikning tasviri	248
Saparova Sh.R. Bolalar adabiyotini o'qitishda Sadridin Ayniy hayoti va ijodiga murojaat	250
Sapayeva V., Maxmudov R. Qadimgi yunon-rim tillaridan o'zlashgan ayrim arxitektura-qurilish atamalarining etimologik tadqiqi	252
Saydalieva A.E. Irony and literary theory	255

so'zlari ham insonga ruh bag'ishlaydi, o'lik dillarga hayot beradi, chorasizga imkon yaratadi. Bu kabi ma'nolar tasavvuf adabiyotining ilohiy haqiqatlaridir.

Mumtoz she'riyatda ma'shuqaning jon ato etuvchi lablari Iso payg'ambar va u kishining nafasleri bilan qiyos yetiladi. «Iso nafas», «Isiyi jon», «Masih», «Masihanfos» sifatlarining qo'llanishi ham shunga ishora bo'lib keladi:

Ul Masih anfosi jonbaxshu labi hayvon suyi,
Olloh-olloh, necha jonim notavon bo'lg'usidur? [3]

«Ul Masihning nafasi, jonbaxsh lablari hayot suvidir, Olloh- olloh, yana mening jonim nechun notavon bo'ladi?...»

Iso payg'ambarning o'z nafasleri bilan o'likni tiriltira olish xislatlari Qur'oni Karimda ham zikr yetiladi. “ Iso men sizlarga yaratgan egamizdan oyat –mo'jiza keltirdim; loydan qush timsolini yasab unga puflasam, u Allohning izni bilan jon kiradi, Allohning izni bilan ko'r va pesni tuzata olaman, va o'liklarni tiriltiraman, yeyayotgan va zaxirada saqlayotgan narsalaringizni ham aytib bera olaman, ishonsangiz ana shular payg'ambarligim uchun yetarli dalildir [8].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, mumtoz she'riyatda, ayniqsa, Navoiy lirikasida mahbuba go'zalligini ulug'lash asnosida haqiqiy mohiyatga - Parvardigorga oshiq bo'lish, uning go'zalliklaridan bahramand bo'lish g'oyalari satrlar mag'ziga singdirib yuboriladi. Shu bois go'zal inson va uning turli uzvlariga mahliyo bo'lib qolish orqali Yaratganning fayz-u tarovati, ilohiy qudrati kashf etilib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mavluda I.G. Somatik leksikaning xususiyatlari. Volume 2 | issue 6 | 2021 issn: 2181-1601.-bb. -2
2. Rayxshteyn A.D. Sopotavitelnyy analiz nemetskoy i russkoy frazeologii. - M: Vysshaya shkola, 1980. - B. 5.
3. Alisher Navoiy. Mukammalar asarlar to'plami. XX jildlik. 1-jild. Badoye ul -bidoya. -Toshkent: Fan, 1987. - 688 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammalar asarlar to'plami. XX jildlik. 3-jild. G'aroyib us - sig'ar. -Toshkent: Fan, 1988. - 575 b.
5. Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S. Ibrohimov. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.– 784 b.
6. Navoiy g'azaliyoti talqinlari. «G'aroyib us-sig'ar». Jonbaxsh lab haqiqati, 73-74-betlar.
7. Navoiy g'azaliyoti talqinlari. «G'aroyib us- sig'ar». Tirgizish mo'jizalarining asoslari, 77-79-betlar.
8. Qur'oni Karim oyatlari mazmun- ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasini. Ikkinchi nashr. Tarjimonlar: Azizxo'ja Inoyatov, G'ani Zikrillayev. – Toshkent: “Hilol – Nashr”, 2022. Oli Imron surasi, 49- oyat - 56-bet.
9. Amonova Z., Axrorova Z. “Nasoyim ul muhabbat” da Imom G'azolliiy talqini. //Alisher Navo'i and 21 st century. – 2024. – T. 1. – №. 1.
10. Amonova Z., To'rayeva M. Alisher Navoiy she'riyatida inson ta'na a'zolarining qo'llanishi //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 5. – C. 79-83.

UO'K 82-053.2(075)

SADRIDDIN AYNIIY BOLALAR ADABIYOTINING ASOSCHISI

*U.S.Amonov, dots., PhD, Buxoro Davlat Pedagogika Instituti, Buxoro
Sh.R.Saparova, tayanch doktorant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

Annotatsiya. Bu maqolada Sadridin Ayniyning “Eski maktab” asari yoritiladi. Asar avtobiografik mazmundagi asar bo'lib, ustoz Ayniyning bolalik damlarini, o'qigan maktablarini hikoya qiladi.

Kalit so'zlar: Prezidentimizning xalqaro konferensiyadagi nutqi, jadid ta'rifatparvarlarimizning darsliklari, Sadridin Ayniyning “Eski maktab” avtobiografik asari.

Аннотация. В данной статье рассматривается произведение Садриддина Айни “Eski maktab” (Старая школа). Произведение автобиографично и рассказывает о детстве учителя Айни и школах, которые он посещал.

Ключевые слова: выступление нашего Президента на международной конференции, учебники наших современных просветителей, автобиографическое произведение Садриддина Айни “Eski maktab” (Старая школа).

Abstract. This article covers Sadridin Ayniy's work “Eski maktab” (The Old School). The work is autobiographical and tells the story of teacher Ayniy's childhood and the schools he attended.

Key words: the speech of our President at the international conference, the textbooks of our modern enlighteners, the autobiographical work "Old School" by Sadridin Ayniy.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 11-dekabrda Toshkentda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirokchilarga tabriklari e'lon qilindi: "Barchamizga ayonki, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi."

Jadid ma'rifatparvarlarimiz Vatanni sevish, uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash kabi yuksak tuyg'ularni xalqning ongiga singdirish, yuragiga kirib borishi uchun qator tadbirlarni amalga oshirishdi. Dastlab, bolalarni, yoshlarni ilm-ma'rifatli bo'lishi uchun maktablar ochib, darsliklar yaratishdi. Ayniqsa, bolalar adabiyotini shakllantirishda ko'plab jadid bobolarimiz, jumladan, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy va Elbek bolalar adabiyotini o'qitishda masal va ertaklar, she'r va dostonlar, qissa va hikoyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishgan. Masalan, Sadridin Ayniyning "Tahsib us-sibyon" (Pok bola), "Yoshlar tarbiyasi" (1909) darsliklari; "Buxoro jallodlari" (1922), "Odina" (1924), "Qulbobo yoki ikki ozod" (1928), "Eski maktab" (avtobiografik qissa, 1935), "Sudxo'ring o'limi" (1939), "Yetim" (1940) qissalari va Elbekning "O'zbekcha o'qish kitobi" (Fotih Sayfi bilan hamkorlikda, 1922), "O'rnak", "Bilim", "Go'zal yozg'ichlar"(1925) kabi darslik, o'quv qo'llanmalari; "Armug'on", "Yolqinlar", "Momaguldurak", "Tanlangan asarlar" to'plamlaridagi asarlari shular jumlasidandir.

Sadridin Ayniyning asarlari ichida "Eski maktab" (1935) qissasi bolalar adabiyotini o'qitishda munosib o'rin egallaydi. Asar avtobiografik mazmundagi asar bo'lib, ustoz Ayniyning bolalik damlarini, o'qigan kitob-u maktablarini hikoya qiladi. Asar qahramoni olti yasharligida qishloq masjidida oldidagi maktabga boradi. Yurakda ezgu umidlar bilan maktabga qadam qo'ygach barcha o'y-xayollari puch bo'ladi. Asarda shunday tasvirlanadi: "Men maktabga bordim, maktab bizning uyimiz kabi keng, to'rt eshikli, yorug' va tinch bo'lmay torgina bir xonada hujradan iborat edi. Uning ikki eshigi bor bo'lib, buning biri bir tavaqali va bu eshik ko'pincha yopiq turar edi. Ikkinchi eshigi darcha bo'lib, uch gaz bo'yi va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldi domla (maktabdor)ning o'tiradigan joyi edi. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog'oz bilan qoplangan) va qog'ozga esa qor yomg'irning ho'llab yirtib yubormasligi uchun zig'ir moyi surtilgan, bu moyli qog'oz ko'chaning chang va tuprog'ini o'ziga ola berib, qozon sochiq kabi qop-qora kirlanib ketgan edi, agar yanglishmasam, domlanning tug'ilgan beri sovun yuzini ko'rmagan, benihoya kirlanib bitgan basharasiga o'xshar edi. Shuningdek maktabning haligi aytganim derazasidan darsxonaga hech bir yorug'lik kirmas edi"

Sadridin Ayniydek jadid ma'rifatparvarlarimizning harakatlari bilan bugun biz keng va yorug' xonalarda zamonaviy jihozlangan dars xonalarda o'qib-o'qityapmiz, albatta, bu yangilanishlar yanada davomiydir. Eski maktabga qaytar ekanmiz, maktabning katakchaga o'xshashi kabi bolalarga ta'lim-tarbiya berilishi ham jo'jalarga don berilishiga o'xshardi. Bolalarning dod-u faryodi go'yo maktab tomini osmonga ko'tarardi. Bu maktabda qolishi uchun bolaning otasi unga xo'tik va'da qiladi. Domla taxtachaga yozilganlarni yoshi kattaroq bola(xalfa)ga aytib bolaga o'rgatishni buyuradi. "alif, be, te se"ni bola yozuvlarni tushunmasdan halfaning og'zidan olib aytaveradi O'qish shu tarzda davom etadi. Domla chiqib ketishi bilan o'quvchilar xonada kurashib, shovqin ko'tarib, kamon otish (kamonboziy) o'yinlarni o'ynashadi. Domla kelgach to'polonni ko'rib bolalarni jazolaydi. Shumlikni boshlagan Xalfa, Ahmad, Muhammad va boshqa bolalarning oyoqlarini zich bog'lab, bolalarning o'ziga urdiradi, og'riqdan qichqirganlarning ovozi eshitilmasligi uchun qolgan o'quvchilarga esa o'qishga buyuradi. Eng achinarlisi to'rt yashardan o'n ikki yoshgacha o'quvchilar o'qiydigan bu maktabda bolalar yana bir jazolash usuliga guvoh bo'lishadi. Xalfani bolalar alamlardan chiqqancha urgach, yorilgan oyoqlarga tuz sepib qo'llari bilan bosib, bu tuzni yorilgan oyoqning go'shtlari orasigacha yuboradilar. Maktabdagi darslardan bola to'tiqushday yodlashdan

nariga o'tmadi. Otasi buni bilib qolgach o'g'lini qizlar maktabiga qo'yadi. Maktabda o'quvchilar qizlar bo'lgani uchun sho'xlik qilmas, darsdan keyin supurish, kir yuvish ishlarini qilib vaqt bo'lsa qo'g'irchoq o'ynardilar. Bolaga ham "o'g'ilcha" qo'g'irchoq yasab berishadi, o'yinda to'y qilib bolaning qo'g'irchoq'i 10-12 nafar "qiz" qo'g'irchoqqa kuyov bo'lar edi. Otin bibi maktabida o'qish va yozishni o'rganmagan bolaga otasi abjadni o'rgatadi. Otasi har kuni bir soat bolasi bilan shug'ullanadi. Shularning samarasi bilan bola yangi yil (navro'z) saylida mulla yigitni abjad hisobida yutib chiqadi, lekin haligacha xat-savodi chiqmagan bo'ladi.

Asardan ma'lumki, bundan bir asr oldin ajdodlarimiz xat-savodlarini chiqarishda mana shunday sharoitlarga ham ko'nganlar, domlarning qattiqqo'lligiga qaramay farzandlarini ishonib topshirganlar. Bu asarni o'qigan kishi, albatta, buguni bilan solishtirib ko'rar ekan, Vatanparvarlik, tinchlik, sinf xonalarining to'liq jihozlanganligiga shukronalik hissini tuyadi. Ayniqsa, O'qituvchilarning mehribonligi, har bir bolaga o'z farzandi kabi qayg'urishini ularning yuzidagi dog'lari-yu, sochlaridagi oqlaridan anglash qiyin emas. Asarni o'qigandan keyin quyidagi savollarga javob berish bilan mustahkamlash mumkin. Savollar:

1. Asarda kimning bolaligi tasvirlangan?
2. Bola necha yoshda maktabga boradi?
3. Maktab qanday tasvirlanadi?
4. Maktab darchasi nimalarga o'xshatiladi?
5. Bola maktabda qolishi uchun otasi unga nima va'da qiladi?
6. Bolalar ichida eng yoshi kattarog'i kim edi?
7. Domla kimlarni qattiq jazolaydi?
8. Bolalarning dodi ko'chaga eshitilmasligi uchun domla nima qiladi?
9. Maktabda necha yoshdagi bolalar o'qiydi?
10. Tuz nima uchun ishlatiladi?
11. Bola nima uchun Otin oyi maktabiga boradigan bo'ldi?
12. Maktabda nechi nafar qiz o'qirdi?
13. Qizlar qanday o'yin o'ynashardi?
14. Navro'z (yangi yil) saylida nima bo'ladi?

Eski maktab qissasi boshlang'ich sinf o'quvchilari va ularni o'qitadigan bo'lajak o'qituvchilar birday sevib o'qiydigan asardir. Asarni o'qish jarayonida inson tasavvurida o'tgan asrimizning boshlarida boshlang'ich maktablar qanday bo'lganligi, ustozlar qay usulda dars o'tishlarini, darsda va darsdan tashqari qaysi metod va vositalardan foydalanishlari namoyon bo'ladi. Asar avtobiografik qissaligini boshida ta'kidlaganimizdek, Ayniy bolaligida bu eski maktabga borishni istamaydi, bolalarning urishqoqligini ko'rib, ustoz domlarning qattiq jazolashlardan qo'rqib, otasiga yig'laydi. Mana shu turdagi maktablarni isloh qilish uchun Sadridin Ayniy jadidlar qatorida qator ishlarni amalga oshiradi. Buxoroda yangi usuldagi maktablar ochib, shu maktablar uchun o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratadi. Shulardan biri "Yoshlar tarbiyasi" (1909) darsligidir. Buyuk ishlari uchun Ayniy bobomizning nomlari yurtimiz ko'chalariga qo'yilib, haykallari qad ko'targan, bugungacha asarlari o'rganilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
2. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil.73-77-betlar.
3. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
4. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. "Academicia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249-7137.2020
5. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va "Buxoroyi sharif" ro'znomasi. "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar.
6. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b.
7. Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar.

8. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar.

9. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 10, 2023 ISSN (E): 2993-2769. P-564-572

10. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature" <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584>

UDC 81'255.4

TRANSLATING NAMES OF UZBEK NATIONAL CLOTHES INTO ENGLISH LANGUAGE

S.M.Anvarova, teacher, Uzbekistan state world languages university, Tashkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy liboslari nomlarini ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolar va yondashuvlar o'rganiladi. Tadqiqotda turli o'zbek kiyimlari nomlarida mavjud bo'lgan madaniy va lingvistik nuanslar o'rganilib, ularning ma'nosi va ahamiyatini ingliz tilida to'g'ri yetkazishdagi qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Tarjimaning turli strategiyalari va usullari, shuningdek, to'g'ri va mazmunli tarjimalarni ta'minlash uchun madaniy kontekstni tushunish muhimligi muhokama qilinadi. Maqolada kiyim nomlari ob'ektivi orqali madaniyatlararo muloqotning murakkabliklari ko'rsatilgan va bunday murakkab til va madaniy elementlarni tarjima qilishda ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqish va tajriba zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: O'zbek milliy liboslari, madaniy nuanslar, lingvistik muammolar, kiyim-kechak buyumlari nomlari, madaniyatlararo muloqot, madaniy kontekst, tarjima strategiyalari, tajribaning ahamiyati.

Аннотация. В данной статье исследуются проблемы и подходы к переводу названий узбекской национальной одежды на английский язык. В исследовании изучаются культурные и языковые нюансы, присутствующие в названиях различных узбекских предметов одежды, и рассматриваются трудности точной передачи их смысла и значения на английском языке. Обсуждаются различные стратегии и методы перевода, а также важность понимания культурного контекста для обеспечения точных и содержательных переводов. В статье освещаются сложности межкультурной коммуникации через призму названий одежды и подчеркивается необходимость тщательного рассмотрения и опыта при переводе таких сложных языковых и культурных элементов.

Ключевые слова: узбекская национальная одежда, культурные нюансы, лингвистические проблемы, названия предметов одежды, межкультурная коммуникация, культурный контекст, стратегии перевода, значимость опыта.

Abstract. This article explores the challenges and approaches to translating names of Uzbek national clothes into English language. The study delves into the cultural and linguistic nuances present in the names of various Uzbek garments, and examines the difficulties in accurately conveying their meaning and significance in English. Different translation strategies and techniques are discussed, as well as the importance of understanding the cultural context in order to provide accurate and meaningful translations. The article highlights the complexities of cross-cultural communication through the lens of clothing names, and emphasizes the need for careful consideration and expertise when translating such intricate linguistic and cultural elements.

Keywords: Uzbek national clothes, cultural nuances, linguistic challenges, garment names, cross-cultural communication, cultural context, translation strategies, significance of expertise.

Introduction. Uzbekistan is a country which rich in tradition and culture, and one of the most prominent aspects of its heritage is its national clothing. Traditional Uzbek attire, with its unique designs and vibrant colors, reflects the rich history and diverse influences of the region. In this article, we will explore the names of Uzbek national clothes and their meanings, translating them into English to provide a deeper understanding of this fascinating aspect of Uzbek culture. Join us on a journey

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI

№6/4 (115)
2024 y., iyun

O‘zbekcha matn muharriri:

Ruscha matn muharriri:

Inglizcha matn muharriri:

Musahhih:

Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod

Hasanov Shodlik

Xamrayev Nurbek, Lamers Jon

O‘rozboyev Abdulla

Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi
Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 06.06.2024

Bosishga ruxsat etildi: 14.06.2024.

Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 70.

Hajmi 27,9 b.t. Buyurtma: № 6-T

Xorazm Ma‘mun akademiyasi nashirlik bo‘limi

220900, Xiva, Markaz-1

Tel/faks: (0 362) 226-20-28

E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz

xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18